







Nogironligi bor insonlar uchun har oylik oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlari uchun qo‘shimcha pul to‘lovlari

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlar uchun **har oylik oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena vositalariga ajratiladigan qo‘shimcha pul to‘lovi** haqida bilib olasan.
	2024-yil 1-maydan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan: ● **yolg‘iz keksalar** ● **nogironligi bor insonlarga** har oyda eng kam iste’mol xarajatlari miqdorida yordam puli berish joriy qilindi.
	Sen iste’mol xarajatlari yordam pulini olishing uchun **“Inson” markazlari** seni **“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”**ga kiritgan bo‘lishi kerak.

	O‘zbekistonda 2024-yil uchun eng kam iste’mol xarajatlari miqdori 1 ta inson uchun 1 oyga **621 ming so‘m** deb belgilangan.
	Sen iste’mol xarajatlari yordam pulini olish uchun **hech qayerga murojaat qilishing shart emas.**
	Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan nogironligi bor insonga **iste’mol xarajatlari yordam puli** har oyda to‘lab borilishi **majburiy.**
	Sen iste’mol xarajatlari yordam pulini olishing nogironlik pensiyangga ta’sir qilmaydi.
	Sen bir vaqtning o‘zida: ● ham iste’mol xarajatlari yordam pulini ● ham nogironlik pensiyasini olishing mumkin.

	“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan: ● yolg‘iz keksalar ● nogironligi bor insonlar ● ularga **hamrohlik qiladigan bitta insonga bir yilda bir marta** viloyatlarga borib-kelish uchun temir yo‘l va avtobuslarga **bepul chiptalar** beriladi.
	**Masalan:** ● Sen Andijondan Toshkentga poyezdda bormoqchisan. ● Senga Toshkentga borish va Andijonga qaytish uchun bepul chipta berilishi kerak.
	Sen viloyatlarga borib kelishga bepul chipta olish uchun **“Inson”** markazlarining mahallalardagi ijtimoiy ishchisiga murojaat qilishing kerak.
	● Nogironligi bor insonlar ● “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan insonlarning yo‘qotilgan pasport yoki ID kartasi bepul almashtirib beriladi.

	• Nogironligi bor insonlar • Reyestrga kiritilgan insonlarga yuqoridagi xizmatlar ko‘rsatilmaganda yoki har yarim yilda tekshiruvchi mahalla raisiga murojaat qilishing mumkin.